

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. Imzo

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701308**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Narsaning holatini ifodalay oladigan ism asosli sodda yasama fe'llar berilgan javobni belgilang.
A) *bo'shamoq, qotmoq, ko'paymoq*
B) *svvsamoq, hayajonlanmoq, ikkilanmoq*
C) *varaqlamoq, bezovitalanmoq, shodlanmoq*
D) *yaltiramoq, sarg'aymoq, bo'shamoq*
2. Berilgan gapda hokim bo'lak vazifa kelgan ot(lar) soni nechta?
Yigit oddiy kiyingan, o'rtaboy va chiroyli ekan.
A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta
3. Mushoirada davra ishtirokchilaridan biri she'rni dabdaba bilan o'qibdi, uning bu qilgan ishi ko'chilikka ma'qul tushmabdi. Shunda shoirlardan biri u kishiga:
-Mavlon, siz she'r o'qiysizmi yoki odam qo'rqitasizmi? deya tanbeh bergan ekan.
Berilgan parchada sodda yasama so'zlarning yasalish asoslari qaysi turkumlarga oid so'zlar iborat?
A) *ot, sifat, fe'l* B) *ot, sifat* C) *ot, sifat* D) *sifat, fe'l*
4. To'g'ri hukmni aniqlang.
A) *jarangli va jarangsiz juftlik hosil qiluvchi undoshlar shovqinli undoshlarga mansub*
B) *jarangsiz jufti yo'q jarangli undoshlar faqat sonor undoshlar guruhiga mansub*
C) *ovozdor undoshlarda shovqin ishtirok etmaydi*
D) *jarangli jufti yo'q jarangsiz undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar sanaladi*
5. Nuqtalar o'rnida faqat bo'g'iz undoshi ishtirok etadigan so'zlar qatorini toping.
A) *so...il, l...tiro, zo...id, mu...tasham*
B) *ma...luq, mu...arrir, ishta...a, i...los*
C) *mu...abbat, mu...ojir, ma...sulot, sa...ovat*
D) *sa...ro, ra...mat, mu...tasham, mu...lat*
6. Berilgan murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlarida fe'lning munosabat shakli orqali ifodalangan qaysi grammatik ma'nolar barcha kesimlarda bir xil?
Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday hayot kechirganini, o'zingning esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganini bilishni istasang, atrofingdagi onalarda qara, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.
A) *zamon va shaxs-son ma'nosi*
B) *zamon va mayl ma'nosi*
C) *mayl va shaxs-son ma'nosi*
D) *mayl, shaxs-son va zamon ma'nosi*
7. Bundan anglagan tushuncham shu bo'lidiki, ba'zi insonlar faqat yeyish uchun yashaydilar, ba'zilar yashash uchungina yeydilar.
Ushbu gap haqida to'g'ri hukmni toping.
A) *ergash gap(lar) tarkibida yasama so'zning yasama so'zga tobelanishi kuzatiladi.*
B) *bosh gap tarkibida bitta yasama so'z qatnashgan*
C) *ushbu murakkab qo'shma gapdagi barcha yasama so'zlarning yasalish asosi ot so'z turkumiga mansub*
D) *ushbu gap bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
8. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.
1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**
A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
9. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?
A) *O'z Vatanga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
B) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*
C) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi.*
D) *Vatanni ko'z qorachig'idayrasrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak*
10. Urush ko'plarning yostig'ini quritdi.
Berilgan gapda ma'no ko'chishning qaysi turi mavjud?
A) *metafora* B) *sinekdoxa* C) *vazifadoshlik* D) *metonimiya*
11. Agarda yolg'ondan bersa guvohlik,
Uning ham gunohin kechirmas Xoliq.
Shu to'rtta gunohdan kim bo'lsa forig',
Bilingki, ularning manglayi yorug'.
Ushbu she'riy parchada olmoshlarning necha ma'no turi qatnashgan?
A) 1 B) 3 C) 4 D) 2
12. Quyida berilgan qaysi gapda yordamchi so'z turkumlarining har bir turiga oid birliklar qatnashgan?
A) *U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi.*
B) *Bu zanjir ila zamonga daxldorsan, sen ham ahli olam qatori uchinchi ming yillikda yashamoqdasan.*
C) *Bu maqsad sari qo'yilgan birinchi qadamgina emas, balki kelajakka ishonch belgisidir.*
D) *Siz ham bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra o'ylab ko'rsangiz bo'larmidi?*
13. Yordamchi so'z turkumlarining faqat bir turiga, oid birliklar uch o'rinda qo'llangan gapni toping.
A) *Ko'z oldimda sobit turar faqat shu Vatan, Kulbasi ham kenglik qadar chulg'aydi meni.*
B) *Faqat o'tmish bilan yashamas inson, Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod.*
C) *Dildan o'chiraylik g'amning otini, Bahor ham baxt kabi axir yagona.*
D) *Mana shu o'yin-kulgular, qo'shiq va kuylar yosh-u qarining diliga orom hamda quvonch bag'ishlagan lola sayli yaqinda bo'lgan edi.*
14. Berilgan qaysi so'zlar qatorida ikkinchi ko'makchi morfema sifat so'z turkumini hosil qilishga xizmat qilgan?
A) *insonparvarlik, qiynoq, ko'nikma*
B) *mehmondorchilik, maqtanchoq, issiqlik*
C) *yog'ingarchilik, yig'loqi, qo'rqinchli*
D) *o'ynoqi, bilimdonlik, tortinchoqlik*
15. Har bir gapi tarkibida yasama so'z(lar) qatnashgan qismlari uyushgan murakkab qo'shma gapni aniqlang.
A) *Yer shivirlaydi, yulduz jivirlaydi, o'lkamizga bahor keladi.*
B) *Sharros yomg'irlar havoni tozalaydi, gulduros momaqaldiroq yurakka jo'shqinlik beradi, qushlar navosi insonga kuch-quvvat ato etadi.*
C) *Xomushlik salomatlik sababidir, chunki ko'p so'zlaguvchi oqil kishi bo'lsa ham, avom uni nodon der.*
D) *Qayerda mehnat yaxshi tashkil qilingan bo'lsa, jamoa a'zolari o'rtasida ahillik va hamjihatlik bo'lsa, u yerda yashash ham zavqli bo'ladi.*
16. Qaysi gapda imloviy xatolik uchramaydi?
A) *Barcha ilmlarni mukammal egallab olishining iloji yo'q, shuning uchun ham eng kerakli, e'tiqodga xizmat qiladigan ilmlarni o'rganish kerak.*
B) *Xayoliga kelgan fikrlarni aytishga xayiqdi.*
C) *Mafkuramizning yagona milliy mafkura ekanligi, bu maqomning O'zbekistonda istiqomat qilayotgan va shu yurtning fuqarosi sanalgan boshqa millat vakillari manfaatlariga zid kelmasligi barchaga ayon.*
D) *Keyingi yillarda ilm-fan, sport, ijod, san'at va boshqa sohalarida erishilgan olamshumul yutuqlarimizni esga oling.*
17. Tinish belgilarini qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud bo'lmagan gapni aniqlang.
A) *Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatga — Roziyani avvalgiday go'zal, shod ko'rish niyatiga — Sattor bir lahzada yetdi.*
B) *Me'morning avvalo raiyat, qolaversa saltanat oldidagi, mavqeyi, Xuroson-u Movarounnahrda shuhrati unga qarshi keskin chora ko'rishga yo'l bermas edi.*
C) *Sekin unga yaqin bordim: bu manzara ham bizga yaqin-da qadrdon!*
D) *U otasi Muzaffar Farmonovning batamom aksi: dadasi yum-yumaloq, baqaloq bo'lsa bu xushqad, xushsurat.*
18. Kesim haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.
1) *gapning markazi hisoblanadi;* 2) *barcha bo'laklar unga bevosita bog'lanadi;* 3) *tasdiq yoki inkor ma'nosini ifodalaydi;* 4) *zamon, mayl, shaxs-son ma'nolari bilan shakllanadi*
A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 2
19. Ham qaratqich aniqlovchini, ham sifatlovchi aniqlovchini tobelantirgan to'ldiruvchi qatnashgan gapni aniqlang.
A) *Shoirning yangi she'riy to'plami uning muxlislari tomonidan qizg'in kutib olindi.*
B) *Yozning issiq kunlari g'animat ekanligini esdan chiqarmanglar.*
C) *O'sha kundan beri Nodiraning qop-qora ko'zlari xayolimdan ketmay*

- goldi.
D) *Kimki mehri daryolik da'vo qilsa, onaning pok qalbi haqida izlab qo'ysin.*
20. Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.
Ushbu she'riy parchadagi so'z birikmalari necha xil yo'l bilan xosil qilingan?
A) 2 B) 1 C) 3 D) 4
21. Egasi shaxs oti bilan ifoqalangan gani aniqlang.
A) *Kitobxonni yo'q asar egasi tashlab ketgan uyga o'xshab fayzsizdir.*
B) *Qalbi qog'ozdek oppoq, qog'ozdek lovullab yonadigan odamgina chinakam san'at asari yarata oladi.*
C) *Yaxshi farzand ota umrini davom ettirishi azaldan mal'um, yaxshi asar esa yozuvchi umrini davom ettiradi.*
D) *Haqiqiy haykaltarosh o'lik toshdan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.*
22. Qaysi gapda ham ot, ham sifat yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan shakl yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?
A) *Sotqinlarga safimizda o'rin yo'q.*
B) *Ota olov va suv girdobkina ozodlik maydoniga chiqa oladigan o'g'li borligidan g'ururlanar edi.*
C) *Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak.*
D) *Ko'chaning narigi yuzidagi do'konga bordik.*
23. U akalari bilan suvsiz cho'lga suv chiqaribdi. Hamma yerni gullagan bog'ga aylantiribdi. Shunda yurtni sonsiz yov bosibdi. Dushmanlar ekinzorlarni ayovsiz paymon qilishibdi, daraxtlarni yoqib yuborishibdi.
Ushbu gapdagi yasama so'zlar sonini belgilang.
A) 7 B) 5 C) 4 D) 6
24. Shakl yasovchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan so'z yasovchi qo'shimcha(lar) qatnashmagan gaplarni aniqlang.
1. Vatan - kelinchakning orzulari qanotida parvoz etib kirgan eshigi. 2. Qizcha qo'g'irchog'ini astagina yotqizib qo'ydi.
3. Chaqin bo'lma, bo'lma guldurak. 4. Sotqinlarga safimizda o'rin yo'q.
A) 2, 3 B) 1, 3, 4 C) 1, 2 D) 1, 2, 4
25. G'azali musajja usulida bitilgan g'azalni belgilang.
A) *"Jong'a chun dermen..." g'azali (Navoiy)*
B) *"Shifoyi vasl qadrin..." g'azali (Fuzuliy)*
C) *"Mani jondan o'sondirdi..." g'azali (Fuzuliy)*
D) *"Mani jondan o'sondirdi..." g'azali (Fuzuliy)*
26. "Ho'ena! Aslo g'am yema! Shu o'gillaringning menda haqi ko'p. Sening tuzingni men ko'p yeganman. Katta o'g'ling meni ko'p parvarish qilar edi. Endi shuning arvohi uchun ertaga maydonga kiraman..."
"Ravshan" dostonidagi ushbu so'zlar qaysi qahramonga tegishli?
A) *Jaynoq kal* B) *Ersak kal* C) *Aynoq kal* D) *Tersak kal*
27. Quyida berilganlardan qaysilari she'riyatning "raqs qo'shig'i" ma'nosini anglatuvchi janrida yozilgan?
1) "Mardlik afsonasi" (Shuhrat);
2) "Mardlik cho'qqisi" (A.Muxtor);
3) "Uch qiz afsonasi" (Shuhrat);
4) "Qullar kemasi" (H.Hayne);
5) "Samarqand afsonasi" (T.To'la)
A) 3, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4
28. "Sayohatnoma" asarida Muqimiy:
Bir ko'cha ketguncha do'kon,
Sho'x odami, ichmay piyon,
Mast otasi bezor ekan...
misralarida qaysi joyni ta'riflagan?
A) *Nursuxni* B) *Do'rmanchani* C) *Oltiariqni* D) *Zohidonni*
29. Davlat qo'nsa bir chibinning boshig'a,
Semurg' qushlar salom berar qoshig'a...
Ushbu bayt xalq dostonlaridagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?
A) *Alpomish* B) *Boysari* C) *Kuntug'mish* D) *Boybo'ri*
30. Nasimi jonfizo bemorlarga, ey sabo, yetkur,
Xazon pajmurda bo'lganlarga bir obi havo yetkur,
Qo'y emdi biz begonani, bir oshno yetkur,
Gadomiz, boshlar uzra soya solsun, Humo yetkur...
Ushbu she'riy parcha muallifini ko'rsating.
A) *Zavqiy* B) *Avaz O'tar* C) *Muqimiy* D) *Furqat*
31. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar",- deya xushomadgoyligi evaziga chopon kiygan obraz uchraydi?
A) *"Mehrobdan chayon"* B) *"Advokatlik osonmi?"* C) *"Abulfayzxon"*
D) *"Sohibqiron"*
32. Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!
Ushbu parcha Alishe Navoiy ijodidagi qaysi adabiy qahramon tilidan aytilgan?
A) *Shirin* B) *Majnun* C) *Farhod* D) *Layli*
33. Oybekning "Navoiy" romanida qaysi qahramon josusligi hamda yashirin hujjatlar bilan qo'lga tushgani tufayli jazo sifatida dorga tortiladi?
A) *qozi Shahobiddin* B) *Majiddin* C) *mavlono Zamoni* D) *Amir Mo'g'ul*
34. Quyidagi qaysi asarlarni Komil Xorazmiy o'zbek tiliga tarjima qilgan?
1) Mirxond, "Ravzat us-safo"; 2) Farohiy, "Mabbub ul-qulub"; 3) Badriddin Hiloliy, "Shob va gado"; 4) Kaykovus, "Qobusnoma"; 5) Faxriddin Ali Safiy, "Latoyif at-tavoyif"
A) 2, 5 B) 1, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 3, 5
35. Quyidagi keltirilgan parchda qaysi asar qahramonining holati tasvirlangan?
"Ilgari kampir ba'zi - ba'zida bu kiyimlarni hidlab yig'lardi. Endi ko'ksidagi muz uni yig'lashga qo'ymadi. U hovli o'rtasiga xazon to'plab, gugurt chaqdi. Gurullab yonayotgan gulhanga...ning kiyimlarini birma - bir tashlay boshladi. Gulhanda...ning bolaligi yonardi".
A) *"Qorako'z Majnun" da Saodat aya*
B) *"Ko'k eshik" da Zuhra kampir*
C) *"Ufq" da Jannat xola*
D) *"Chinor" da Sharofat xola*
36. Quyidagi baytda qo'llangan badiiy san'atni toping.
Qaro sangdur sani asling qarosarig,
Beribdursan ziyo qoni bila rang.
A) *talmeh* B) *tashxis* C) *tadrij* D) *tajnis*

BIOLOGIYA

37. Quyondalarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 24 sm li $A_1A_1A_2A_2$ genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li $a_1a_1A_2a_2$ genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini digeterozigota genotipli quyonlar tashkil qiladi?
A) 25 B) 75 C) 50 D) 12,5
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilar hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'yli o'simlik bilan chatishtirilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarini o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.
A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlansa, $AaBb \times aaBb$ genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning genotip (I) va fenotip (II) nisbatlarini aniqlang.
A) $a-3:1:2:1:1$; $b-4:2:1:1$
B) $a-1:1:1:3:1:1$; $b-2:4:1:1$
C) $a-2:2:2:1:1$; $b-3:2:2:1$
D) $a-1:2:1:1:2:1$; $b-3:1:3:1$
40. DNK qo'sh zanjirida 180 ta vodorod bog'i bo'lib, uning 1/3 qismi guanin va sitozin orasida joylashgan bo'lsa, DNKdagi guanin nukleotidlar sonini toping.
A) 60 B) 20 C) 40 D) 80
41. O'simlik sitoplazmasida achish jarayonida 160 kJ energiya ATF to'plangan bo'lsa, mitoxondriyada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF ga qancha energiya (kJ) bog'langan (b)?
A) $a-2560$; $b-91200$

- B) a-4640; b-4320
C) a-3480; b-3240
D) a-2320; b-86400
42. Qora kalamushning zigotasi 4 marta meridional bo'lingandan so'ng uning jami blastamerlaridagi xromosomalar soni 2432 tani tashkil etgan bo'lsa, jami hujayralardagi autosomlar sonini aniqlang.
A) 1216 B) 1280 C) 2560 D) 2304
43. Qaysi javobda o'simliklar sistematikasi kichik sistematik guruhdan katta sistematik guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan?
1) tokdoshlar; 2) terakbargli liftok; 3) magnoliyasimonlar; 4) ikki urug'pallalilar; 5) liftok; 6) magnoliyoifalalar; 7) yopiq urug'lilar; 8) qoqio'tdoshlar; 9) madaniy tok
A) 2,9,8,3,7 B) 5,2,1,4,7 C) 5,2,1,3,6 D) 2,5,1,4,6
44. Quyidagilar orasidan odam tanasiga oid noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Qorin bo'shlig'i pastki qismidagi organlar ishini orqa miyaning dumg'aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nerv tolalari boshqaradi.
B) Yurak ishini orqa miyaning dumg'aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nerv sistemasining tolalari boshqarmaydi, bel umurtqasining ro'parasida oshqozon osti bezi joylashgan.
C) Siydik pufagi ishini orqa miyaning dumg'aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nerv sistemasining tolalari boshqarmaydi.
D) Orqa miyaning bo'yin segmenti tolalari ichak faoliyatini boshqarishda ishtirok etmaydi, yurak faoliyatini boshqarishda adashgan nerv tolalari ishtirok etadi.
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fandagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.
1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlodi; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;
a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtiozavr
A) 1-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d
B) 1-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f
C) 1-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d
D) 1-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Organizm (a) va biogeotsenoz (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.
1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Abiotik omillarning ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
a) namlik; b) topografik;
1) odamlarda gipoksiya belgilarining paydo bo'lishi; 2) terida melanin pigmentining hosil bo'lishi; 3) hasharotlarda nafas teshiklarining klapanlar bilan bekilishi; 4) ko'pchilik cho'lda yashaydigan hayvonlarning tunda faol bo'lishi; 5) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi
A) a-3,4; b-1,5 B) a-2,5; b-3,4 C) a-2,4; b-3,5 D) a-1,5; b-3,4
48. Komplementar irsiylanishda epistaz irsiylanish kabi ...
1) allel bo'lmagan genlarning o'zaro ta'siri kuzatiladi; 2) digeterozigota duragaylarning avlodida 9 xil genotipik sinf hosil bo'ladi; 3) belginig rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 4) bir gen belgiga bevosita ta'sir qilsa, ikkinchisi bilvosita ta'sir qiladi
A) 3,4 B) 2,3 C) 1,2 D) 1,4
49. Odam a'zolaridan ajraladigan gormonlar to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) glyukokortikoid; 2) androgen; 3) katexolamin; 4) timozin; 5) intermedin; 6) tripsin;
a) gipofizning o'rta bo'lagi; b) gipofizning orqa bo'lagi; c) qalqonsimon bez; d) epifiz; e) buyrakusti bezining po'stloq qavati; f) buyrakusti bezining miya qavati; g) oshqozon osti bezi
A) 1-e, 3-f, 5-b, 6-g B) 1-e, 2-e, 3-b, 5-a C) 1-e, 2-f, 3-f, 4-d D) 1-f, 3-e, 3-c, 5-a
50. III qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?
A) antitanalar, insulin, agglyutinin a, gemoglobin, glyukoza, fermentlar
B) gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen B
C) antigemofil omil, agglyutinin β, gormonlar, vitaminlar, rezus omil
D) aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinin
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilar orasidan sog'lom odamning siydik qopi va siydik yo'li uchun umumiy bo'lgan belgilarni ajratg.
1) murtak varaqasining mezodermasidan hosil bo'ladi; 2) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shashadi; 6) devorida proprioretseptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida muskullari qisqaradi
A) 1,2,4 B) 2,3,5 C) 5,6,7 D) 3,4,6
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
A) Terining derma qavatida sovuqni va siypalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
B) Gipermotropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.
D) Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Qaysi javobda faqat o'pkasi yordamida nafas oluvchi organizmlar keltirilgan?
A) chumolixo'r, tapir, lama, salamandra
B) katta kivi, yexidna, triton, kazuar
C) suvilon, gatteriya guattara, ilonbo'yin toshbaqa, echkiemar
D) kolibri, yashil qurbaqa, malla revun, ko'l baqasi
55. Qisqichbaqada ham, butli o'rgimchakda ham qorin qismida joylashgan a'zolari ko'rsating.
1) zahar bezi; 2) oshqozon; 3) ichak; 4) jinsiy bez; 5) traxeya; 6) o'pka xaltasi; 7) yurak; 8) nerv zanjiri; 9) so'gallar; 10) yurish oyoqlari
A) 5,6 B) 3,8 C) 1,2,10 D) 4,7,9
56. Alligator bilan bir sinfdagi (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr
B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Tripanosoma va pichan batsillasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
A) Hayotning hujayraviy shakli, irsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.
B) Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitidan iborat.
C) Yadrosi ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.
D) Membranasini ikki qator lipid va oqsil molekullaridan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi
58. Jag'larida faqat kurak va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.
1) larcha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) suqsun; 9) yumronqoziq; 10) olaqozan
A) 1,3,4 B) 2,5,7 C) 5,9,10 D) 6,7,8
59. Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.
1) ossillatoriya; 2) oltingugurt bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) tekoma; 5) nitella; 6) volvoks; 7) midiya; 8) floks; 9) perlovitsa
A) a-2,3; b-6,7,8
B) a-1,2,3; b-4,5,8
C) a-2; b-6,8
D) a-3; b-7,9
60. Hujayra qobig'i sellyulozadan iborat organizmlarga zarar keltiruvchi, hujayra qobig'i murein moddasidan iborat organizmlarni aniqlang.
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) nozema; 3) vertitsill; 4) agrobakterium; 5)

- leyshmaniya; 6) zang zamburug'i; 7) tamaki mozaikasi
A) 6,7 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,4
61. Qaysi jarayonlar mitoz uchun xos emas?
1) profaza, metafaza, anafaza, telofaza bosqichlarining bo'lishi; 2) ikkita bir xil irsiy axborotga ega gaploid to'plamli hujayralarning hosil bo'lishi; 3) gomologik xromosomalarning ajralib har hil xujayralarga tarqalishi; 4) gaploid to'plami mikrospori bo'linishi; 5) telofazadan so'ng doim sitokinez sodir bo'lishi; 6) diploid to'plami arxeosperaning bo'linishi
A) 4,5,6 B) 1,2,5 C) 3,6 D) 3,4
62. Bir-biriga yaqin turlardan tashkil topgan sistemali birlikka mansub toza liniyalarni aniqlang.
1) jaydari g'o'za; 2) Meksika g'o'zasi; 3) kanop; 4) Misr g'o'zasi; 5) "Yulduz"; 6) "Buxoro-9"; 7) "Omad"; 8) "Toshkent-1"; 9) bo'ritaroq; 10) "Sangzor"
A) 5,6,7 B) 1,2,4 C) 7,8,10 D) 1,3,9
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasi BamHI restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasida tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?
A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?
A) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva
B) a-juft patsimon, yonbargchasi; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva
C) a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyshiq gul; c-quruq meva, pallalari orasida to'sig'i yo'q
D) a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva, pallalari orasida to'sig'i bor
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
A) a-umumiy gulpoya qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; b-uzun gulpoyada gullar ketma-ket joylashgan
B) a-asosiy gulpoyasi shoxlangan; b-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan
C) a-asosiy gulpoyasi shoxlanmagan; b-asosiy gulpoyasi shoxlangan
D) a-atrofi o'rama bargchalar bilan o'ralgan; b-gullar gulpoyaga uzun bandlar bilan birikadi
66. Ko'p urug'li quruq (a) va bir urug'li ho'l (b) meva hosil qiluvchi o'simliklarni aniqlang.
1) g'o'za; 2) javdar; 3) gilos; 4) nok; 5) shaftoli; 6) olxo'ri; 7) loviya; 8) lola
A) a-1,2; b-3,6
B) a-8; b-3,5
C) a-7; b-4,8
D) a-2,7; b-5,6
67. Bo'ymadaron haqidagi noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) moychechakdoshlar oilasiga kiradi
B) to'pguli o'rama bargchalar bilan qoplangan
C) shuvoq turkumi vakili
D) to'pguli asosan naychasimon gultajibarglardan tashkil topgan
68. Spirogira (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.
1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofil pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'rda oqsillar sintezlanadi; 6) mitoxondriyada kislorodli oksidlanish sodir bo'lad
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Tuxum xujayrasi urug'chili qubbalaridagi arxegoniya yetiladi
B) Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi
C) Hayotiy shakli daraxt, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'i qubbalarida ochiq holda yetiladi
D) Barglari och yashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkitadan bo'lib joylashadi
70. Qirquqlarda murtakdan rivojlanuvchi bo'g'ida qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) sporangiy; 6) anteridiy; 7) sporalar; 8) sorus; 9) arxegoniya; 10) gametalar
A) 2,5,8 B) 4,7,8 C) 4,6,9 D) 1,3,10
71. Yer yuzidagi yagona quruqlik-Pangeya ikki bo'lakka ajralgan davrda...
A) yo'ldoshi sutemizuvchilar paydo bo'lgan
B) kordaitlar paydo bo'lgan
C) dastlabki sutemizuvchilar paydo bo'lgan
D) arxeopteriks paydo bo'lgan
72. Quyidagilardan ajdodlar belgisining takrorlanishiga mos misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) bug'doyigul, marvaridgul, qirquqlar ildizpoyasidagi qobiqlar; 2) otning ikkinchi va to'rtinchi barmoqlar; 3) uch juft emchakli buzoqchanning tug'ilishi; 4) to'riq otlarda xira chiziqlarning paydo bo'lishi; 5) kitning dumg'aza va orqa oyoq suyaklari; 6) pashsha va chivinning ikkinchi juft qanotlari; 7) yuzi va badani yungli chaqaloqlar tug'ilishi; 8) dumli bola tug'ilishi
A) 2,3,4,6 B) 3,4,7,8 C) 1,2,5,6 D) 4,5,6,7

KIMYO

73. Qaysi karbon kislotaning 0,6 moli tarkibida 14,4 g uglerod atomlari bo'ladi?
A) moy kislotasi
B) propan kislotasi
C) chumoli kislotasi
D) sirka kislotasi
74. Buten-3-kislotasi molekulasida tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.
A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
75. Quyidagi berilganlardan faqat oksidlovchilarni ajrating.
1) NaMnO₄; 2) H₂SO₄; 3) H₂S; 4) CrO₃; 5) NH₃; 6) HClO₄
A) 1,2,3 B) 1,2,4,6 C) 4,5,6 D) 1,2,5
76. 22,5 g aminokislotasi bilan to'la reaksiyaga kirishish uchun NaOH ning 120 g eritmasi sarflandi. Agar natriy gidroksid eritmasi tarkibida 12,3% N_A ta vodorod atomi mavjud bo'lsa, aminokislotani aniqlang.
A) valin B) alanin C) leysin D) glitsin
77. 17,8 g α-aminokislotadan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislotani toping.
A) α-amino 2- metilpropan kislotasi
B) glitsin
C) β-aminopropion kislotasi
D) α-aminopropion kislotasi
78. 34,2 g 20% li saxarozaning eritmasi kislotali muhitda gidrolizlanganda olingan aralashma kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan ishlandi. Bunda 0,02 mol cho'kma tushdi. Saxarozaning gidrolizi reaksiyasi unumini (%) toping.
A) 60 B) 50 C) 80 D) 75
79. 0,5 mol noma'lum bir asosli to'yingan karbon kislotasi eritmasiga Na metali qo'shilganda 11,2 litr (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Reaksiya sodir bo'lgan idishga yuqori bosim va temperatura ostida yetarlicha is gazi yutirilishi natijasida hosil bo'lgan mahsulot birinchi reaksiyadan ajralgan organik mahsulot bilan 34:55 massa nisbatda ekanligi aniqlandi. Noma'lum kislotaning 1 moli tarkibidagi sp³ – gibridlangan orbitallar sonini aniqlang.
A) 12 B) 4 C) 16 D) 8
80. Qaysi molekula tarkibida 3 ta sp³ va 2 ta sp² – gibridlangan uglerod atomlari bor?
A) buten-2 B) izopren C) butadiyen-1,3 D) 2-metilbuten-1
81. Xolinin molekulasida qaysi halqalarning kondensirlanishidan hosil bo'ladi?
A) benzol va pirimidin
B) benzol va piridin
C) pirimidin va imidazol
D) piridin va imidazol
82. Ksantoprotein reaksiyasi asosida bir mol tirozinga konsentrlangan nitrat kislotasi ta'sir ettirilganda 203,25 g sariq rangli dinitrobenzol hosil bo'ladi. Reaksiya unumi (%) aniqlang.
A) 75 B) 60 C) 80 D) 55
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kalii permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO₂ gazi, 0,2 mol benzoil

- kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.
A) 20,1; 12
B) 33,5; 80,4
C) 46,9; 93,8
D) 26,8; 53,6
84. Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat (mol nisbati 1:1) aralashma qizdirilganda olingan kislorod mis naychadan o'tkazildi. Bunda mis naychani 40% oksidlandi. Olingan nay 320 g 98%li sulfat kislota to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi natriy nitrat massasini (g) aniqlang.
A) 34 B) 17 C) 54,4 D) 68
85. NH_4^+ va CH_4 uchun umumiy bo'lgan xususiyat(lar)ni toping.
1) donor-akseptor bog'ining mavjudligi; 2) markaziy atomning gibridlanish turi; 3) markaziy atomning valentligi; 4) markaziy atomning oksidlanish darajasi
A) 2,3,4 B) 1,4 C) 2,3 D) 1
86. 6,72 litr (n.sh.) butan tarkibidagi vodorod atomlari sonini aniqlang.
A) $7 \cdot N_A$
B) $2,4 \cdot N_A$
C) $3 \cdot N_A$
D) $3,6 \cdot N_A$
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/4; 1/4; 1/2
B) 1/7; 3/7; 3/7
C) 1/9; 2/3; 2/9
D) 2/5; 2/5; 1/5
88. ${}_{92}^{238}\text{U} + 10\alpha \rightarrow \text{E} + \text{A} + \text{p} + 7\text{n}$ Ushbu yadro reaksiyasida E element izotopi massasi Uran izotopi massasidan 4/5 marta, A element izotopi massasidan esa 2,4 marta katta. E elementdagi elektronlar soni A element elektronlari sonidan 43 taga ko'p bo'lsa, E elementni aniqlang.
A) Pb B) Ir C) Pt D) Bi
89. Mis (II) nitrat kristallogidrat tarkibida kislorodning massa ulushi vodorodnikidan 24 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi.
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
90. Tarkibida massa bo'yicha 36,5% Me, 25,4% S va 38,1% O bo'lgan moddaning formulasini aniqlang.
A) BaSO_4
B) $\text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3$
C) BaSO_3
D) Na_2SO_3
91. 1 mol C_3H_6 va H_2 aralashmasi ($D(\text{H}_2)=14,5$) yopiq idishda katalizator ishtirokida 320°C gacha qizdirildi. So'ngra harorat dastlabki holatga keltirilganda idishdagi bosim 20% kamaygan bo'lsa, reaksiyaning nazariy jihatdan unumini (%) toping.
A) 32,5 B) 35 C) 61,54 D) 20
92. 75 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 50% li eritma hosil bo'ladi?
A) 25 B) 12,5 C) 17,5 D) 39
93. 200 g 14,2% Na_2HPO_4 eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H_3PO_4 eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH_2PO_4 tuzining massa ulushi Na_2HPO_4 tuzining massa ulushidan 71/40 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H_3PO_4 eritmasining molyarligini (M) aniqlang.
A) 0,1 B) 0,3 C) 0,4 D) 0,5
94. X ga 40%li CaBr_2 eritmasini to'yintirish uchun 20 g CaBr_2 tuzidan qo'shish kerak. Tuzning ushbu haroratda eruvchanlik koeffitsiyenti 80 ga teng. Boshlang'ich eritmada qancha miqdorda (g) tuz bo'lgan?
A) 250 B) 150 C) 100 D) 300
95. KOH ning 0,8 M 400 ml eritmasiga 1,92 g ishqor qo'shilganda $\text{pH}=14$ bo'lgan eritma hosil bo'ldi. Ishqorni toping. ($\alpha=100\%$, hajm o'zgarishi hisobga olinmasin)
A) NaOH
B) $\text{Ca}(\text{OH})_2$
C) RbOH
D) LiOH
96. Ishqor suvli eritmada quyidagi qaysi moddalar bilan ta'sirlashmaydi?
A) bariy nitrat, alyuminiy xlorid
B) bariy sulfat, natriy xlorid
C) xrom(III) gidroksid, xrom trioksid
D) diyod pentaoksid, vodorod sulfid
97. $\text{KOH} \rightarrow \text{KHCO}_3 \rightarrow \text{CH}_3\text{COOK} \rightarrow \text{KCl}$ reaksiya unumlari mos ketma-ketlikda 75, 80, 50% bo'lsa va KCl massasi reaksiya uchun olingan KOH massasidan 33,65 g ga kam bo'lsa, nordon tuzning massasini (g) aniqlang.
A) 100 B) 75 C) 80 D) 120
98. Tarkibida 68 g AgNO_3 , 34 g NaNO_3 , 48 g CuSO_4 bo'lgan eritmalar solingan elektrolizyorlar tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar 6,7 A tok yordamida 2 soat davomida elektroliz qilingan bo'lsa, katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) mos ravishda aniqlang.
A) 43,2; 0,5; 9,6
B) 43,2; 0,5; 12,9
C) 43,3; 0,5; 9,8
D) 43,3; 0,5; 16
99. Mis sim qizdirilganda massasi 5% ortgan. Hosil bo'lgan aralashmadagi CuO massa ulushini aniqlang.
A) 8/21 B) 10/21 C) 16/21 D) 5/21
100. Kaliy permanganat va natriy nitratdan iborat 0,8 mol aralashma (mol nisbati 1:0,6) qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nay 320 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlangan?
A) 60 B) 50 C) 40 D) 80
101. 0,5 mol lity va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi lityning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,1 B) 0,2 C) 0,3 D) 0,4
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.
A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103. $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + \text{zCO}_2$ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi
C) MgCO_3 tarkibida qo'shimchalar borligini
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Ozon va kislorod aralashmasi hosil bo'ldi. Aralashmada ozonning massa ulushini 50% bo'lsa, reaksiya unumini (%) toping.
A) 50 B) 53 C) 44 D) 85
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi HCl tugaguncha eritilganda H_2 gazi ajraldi va MeCl_2 ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan MeCl_2 eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)
A) 71 B) 66 C) 59 D) 46
106. Qaysi tuz eritmasida ishqoriy muhitni ta'minlash gidrolizlanish reaksiyasini susaytiradi?
A) MgSO_4
B) NaNO_3
C) K_2SO_3
D) ZnCl_2
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 12 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. Ikkilamchi alifatik to'yingan amin yondirilganda sarf bo'lgan kislorod hajmi hosil bo'lgan CO_2 hajmidan 1,75 marta ko'p bo'lsa, aminni toping.
A) dietilamin B) metilpropilamin C) propilamin D) metiletilamin